

## TIL O'RGANISH VA O'RGATISH JARAYONIDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANING MOHIYATI

**Rustam Yuldoshev Dilshod O'gli**

**Qarshi davlat universiteti**

**Pedagogika fakulteti, tayanch doktorant**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.13220416>**

**Annotatsiya:** Maqolaning asosiy mavzusi - tilni o'rgatish va o'rganish bo'yicha pragmatik kompetensiya, shuningdek, ikkinchi chet tilida samarali muloqot qilishda uning mohiyati haqida. Maqolada kompetensiya atamasining turlari bilan bir qatorda ta'rifini ham topish mumkin. Maqolani ko'zdan kechirish jarayonidan ko'rinib turibdiki, muloqotda malakaning bir turi ustuvor rol o'ynamaydi, balki har bir tur xabarni samarali yetkazishda o'z o'rniga ega.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, lingvistik, pragmatik, ijtimoiy-lingvistik, strategik, til o'rgatish, tilni o'zlashtirish, ikkinchi chet tili, intonatsiya, dinamik ma'no, leksik/grammatik qobiliyat, kommunikativ kompetensiya, kontekst, muloqot muammolari, avtonom subyekt.

## CONTENT OF PRAGMATIC COMPETENCE IN LANGUAGE LEARNING AND TEACHING

**Rustam Yuldoshev Dilshod o'g'li**

**Karshi State University**

**Faculty of Pedagogy, doctoral student**

**Annotation:** The main topic of the article is competence in language teaching and learning, as well as its importance in effective communication in a second foreign language. In the article, you can find the definition of the term competence, as well as its types. As it can be seen from the process of reviewing the article, one type of skill does not play a priority role in communication, but each type has its place in effective message delivery.

**Key words:** competence, linguistic, pragmatic, socio-linguistic, strategic, language teaching, language acquisition, second language, intonation, dynamic meaning, lexical/grammatical ability, communicative competence, context, communication problems, autonomous entity.

## СОДЕРЖАНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ И ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКА

**Рустам Юлдошев Дилшод угли**

**Каршинский государственный университет**

**Факультет педагогики, докторант**

**Аннотация:** Основной темой статьи является компетенция в преподавании и изучении языка, а также ее значение в эффективном общении на втором иностранном языке. В статье можно найти определение термина компетентность, а также ее виды. Как видно из процесса рецензирования статьи, один тип навыка не играет приоритетной роли в общении, но каждый тип имеет свое место в эффективной доставке сообщения.

**Ключевые слова:** компетенция, лингвистическая, прагматическая, социо-лингвистическая, стратегическая, обучение языку, овладение языком, второй язык, интонация, динамическое значение, лексико-грамматические способности, коммуникативная компетентность, контекст, коммуникативные проблемы, автономный субъект.

**KIRISH.** O'tgan asr so'ngida bozor iqtisodiyotining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, zamonaviy axborot texnologiyalarining ommalashuvi, ilmiy tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarblashib, tilshunoslik ham amaliy vazifalariga – nutq samaradorligi tadqiqiga e'tiborni kuchaytirdi. Natijada fanda sotsiolingvistika, etnosotsiolingvistika, lingvopragmatika, pragmalingvistika, pragmatika, psixolingvistika kabi nomlar bilan yuritiluvchi yangi tarmoqlari shakllandi. Bu yo'nalishlarni o'zida mujassamlashtirgan yangi davr tilshunosligi nutqqa insoniy faoliyat – fikr almashish va o'zgalarga ta'sir ko'rsatish, bunyod qilishning asosiy turlaridan biri sifatida yondashib, uning ixchamligi, samaradorligi va ta'sirchanligi, mantiqiyliqi tadqiqini birinchi o'ringa qo'yadi. Xususan, bugungi kunda jahon tilshunosligida nutqning faoliyat sifatidagi qiymati hamda uning implikaturalari bo'lgan ko'chma va tag ma'nolarni, ochiq ifodalanmagan, lekin ifodalanishi so'zlovchining maqsadi bo'lgan ma'lumot-axborotni aniqlash usullari ishlab chiqildi va u tezda ommalashib ulgurdi.

**ASOSIY QISM.** Struktur tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tilga boshqa hodisalardan, xususan, inson omilidan xoli qilingan “quruq”, statik sistema sifatida munosabatda bo'lib keldi. Tilning voqelanishda inson omili bilan bog'liq ravishdagi nutqiy muloqot jarayonini tadqiq qilish lingvopragmatik va psixolingvistik yo'nalishning o'rganish manbaini tashkil etadi. Ma'lumki, nutqiy muloqot o'nlab – milliy, etnografik, ijtimoiy, falsafiy-madaniy, axloqiy-estetik, tarixiy, maishiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar voqelanishi bilan qorishuvidan iborat dinamik sistemadir. Demak, insonning mental faoliyati bilan bog'liq ravishdagi hodisalarni tadqiq qiluvchi kul'turologiya fanining muhim tarmoqlaridan biri sifatidagi pragmatik tilshunoslik inson sub'ekti va ob'ektivlik (lison)ni qorishiq yaxlitlik sifatida tadqiq qiladi. Zero, nutqda sub'ektivlik va ob'ektivlikni bir-biridan ajratgan holda tadqiq qilish mumkin emas, sistemaviylik yaxlitlik xossasi bilan xarakterlanadi. Demak, nutqiy faoliyat unga yondosh va insonga xos ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy sistemalar bilan bog'liqlikda tadqiq etilgandagina nutqiy muloqotning mohiyati ochiladi va individual hodisa sifatidagi nutqqa ob'ektiv baho beriladi.

Lisonning nutqiy voqelanishini unga hamrohlik qiluvchi nutqiy paradigmlar (fiziologik, ruhiy, professional, axloqiy, estetik, madaniy, nutq vaziyati – nutq sharoiti, nutq uslubi) qurshovida tekshirish natijasida lisonni modifikatsiya qiluvchi vositalarning ta'siri va rolga baho, nutqning ijtimoiy qiymatiga va ta'sirchanlik – bunyodkorlik ahamiyatiga ilmiy tavsif beriladi. Tilni o'rganish va o'rgatish so'nggi o'n yillikda olimlar tomonidan olib borilgan ko'plab munozaralar va tadqiqotlar uchun qizg'in nuqta bo'lganligi haqiqatdir, chunki biror chet tilini o'zlashtirish yangi rivojlanish bosqichini ko'rdi. Sir emaski, bugungi kunda har birimizda xalqaro tilni o'rganish istagi bor, chunki til dunyo hamjamiyatida imkoniyatlar eshiklarni ochadigan kalit misolidir. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarni hisobga olgan holda, o'qituvchilar ikkinchi chet tilini o'rganishning iloji boricha oson va samarali usullarini ishlab chiqmoqdalar, ulardan biri til kompetensiyasini rivojlantirishdir. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish tizimi zamonaviy jamiyat talablariga va oliy ta'lim zamonaviy nazariyasining kontseptual asoslariga muvofiq rivojlanmoqda. Bu esa uni butun hayot davomida ta'lim g'oyalariga hamda integratsiyasiga yo'naltiradi. Shu o'rinda o'z-o'zidan xorijiy tillarni bilishning xalqaro standartlari, o'quvchilarni o'quv jarayonining avtonom subyektlari sifatida shakllantirish, kompetensiyalar bo'yicha ta'lim maqsadlarini shakllantirish kabi bir nechta dolzarb metodik masalalar paydo bo'ladi. Quyidagi maqolada “kompetentlik” atamasi hamda uning turlari va shu bilan birga til o'zlashtirishdagi ahamiyati ham ko'rib chiqiladi. Tilshunoslikdagi "kompetentlik"

ning qisqacha ta'rifiga kelsak, u tilda nutqning shakllanishini tartibga soluvchi qoidalarini shaxsning ongli ravishda bilishini anglatadi. Tilshunoslikda kompetensiyaning lingvistik, pragmatik, ijtimoiy-lingvistik va strategik kompetensiya turlari mavjud. Lingvistik kompetensiya siz uchun nimani anglatadi?

Devid L. Chiesa va Ulug'bek Azizovlar fikriga ko'ra, lingvistik yoki Grammatik kompetensiya – grammatik, og'zaki va yozma gaplarga nisbatan leksik, sintaktik va stilistik qoidalar majmuyidir. Lingvistik kompetensiya muhim ahamiyatga ega, chunki u gaplar va jumlar qanday tuzilganligini tushuntiradi - tilning strukturaviy kontseptualizatsiyasi hisoblanadi. Biroq, bu qoidalar kommunikativ maqsadga erishish uchun yetarli emas, chunki lingvistik bo'lmagan omillar ham mavjud, qaysiki, ijtimoiy ma'nolarni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsan men uchun lingvistik kompetensiya og'zaki yoki yozma bayon etish maqsadida tushunchalar, fikrlar, his-tuyg'ularni ifodalash va talqin qilish yordamida ma'lum bir tildan foydalanishni anglatadi. Men uchun lingvistik kompetensiya darsda juda muhim, chunki lug'at va grammatikani o'rgatishda lingvistik kompetensiyaga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Sababi shuki, u kontekstda yangi so'zlar va yangi grammatik qoidalarini o'rgatishda haqiqatan ham samarali. Lingvistik kompetensiya kontekstda taqdim etilishi kerak bo'lgan lug'at yoki grammatikani o'rgatish bilan chambarchas bog'liq. Shubhasiz, bu turdagi kompetensiya o'quvchilarga so'zlarni og'zaki yoki yozma shaklda amalda qo'llashga imkon berishda amaliy qo'l kelishi kerak. Pragmatik kompetensiyaga keladigan bo'lsak, pragmatik/diskurs kompetensiyasi kontekstda ma'noni izohlash va yetkazish qobiliyatidir. Dinamik ma'noni tushunish vaqt, makon va ijtimoiy kontekstga bog'liq jarayondir. Muloqot paytida odamlar nafaqat mazmunli tuzilmalar va semantikalarini almashadilar, balki ular maqsadlarini ham tinglivchiga yetkazadilar. Bu maqsad vaqt, makon va ijtimoiy kontekstga bog'liq. Muloqotda ushbu maqsadilarni izohlay olish pragmatik/diskurs malakasiga ega bo'lish hisoblanadi. Hammaga ma'lumki, tilshunoslikni o'rganishda pragmatik kompetensiya tildan kontekstga mos ravishda samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi. Pragmatik kompetensiya umumiy kommunikativ kompetensiyaning asosiy jihati hisoblanadi. Mening nazarimda, bir tomondan, lingvistik kompetensiya grammatik va leksik qobiliyatdan (jumladan, fonetika, semantika, sintaksis yoki intonatsiyani tushunish) iborat; boshqa tomondan, pragmatik kompetensiya ma'lum bir maqsadga erishish yoki tilni kontekstda tushunish uchun tildan samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi. Ijtimoiy-lingvistik kompetensiya haqida gapiradigan bo'lsak, Devid L. Chiesa va Ulug'bek Azizov ma'lumotlariga ko'ra, sotsiolingvistik kompetensiya jamiyatdagi narsalar, obyektlar va jarayonlarni tasvirlashda madaniyat(lar), umumiy ijtimoiy qoidalar va me'yorlar qanday ta'sir qilishini bilishda iboratdir. Ijtimoiy lingvistik kompetensiya talabalarda bir xil obyektlar, subyektlar va jarayonlarni tasvirlashda turli madaniyatlardagi jamiyatlarda turli grammatika, sintaksis, semantik, va stilistikani qanday tanlashini tushunish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, u ijtimoiy kontekstda qayerda qanday holatda to'g'ri gapirishni nazoratga oladi.

Mening fikrimcha, sotsiolingvistik kompetensiya kimningdir ijtimoiy kontekstda mos va xos tildan foydalanish qobiliyatini anglatadi, bu madaniyat normalari, e'tiqodlar, qadriyatlar va xatti-harakatlarini anglatadi. Strategik kompetensiya-- bu lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalardan boshqa vositalar yordamida bir tildan boshqa tilga xabar yetkazish orqali bilimning bunday yetishmasligini bartaraf etishdir. Chet tilida turli odamlar bilan muloqot qilishda biz har doim ham barcha so'zlarni bilmaymiz yoki tushunmaymiz. Ushbu noma'lum so'zlarning ma'nosini ushbu so'zlarni o'z-o'zidan ishlatmasdan yetkazib berish

strategik malakaga ega bo'lishni anglatadi. Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, chet tilini bilish sohasida oliy ma'lumotli mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy ehtiyojlarini qondirish zarurati va u bilan bog'liq bo'lgan kasbiy yo'naltirilgan chet tilini tayyorlashni optimallashtirish vazifasini anglash, chet tilini bilish malakasini shakllantirish bo'yicha tadqiqotlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu yo'nalishda turli olimlar hozirgacha ish olib borishgan, misol uchun, M.I. Luneva 1997, E. V. Tarasova 1997, T. M. Saltykova 1998, S. A. Baukina 1999, L. V. Makar 2000, Y. K. Chernova 2001, L. E. Alekseeva 2002, A. Alekseeva 2002, Kopylovskaya 2004 yil, E.H. Suntsova 2005 yil, O.I. Safronenko 2006 yil, N.I. Snytnikova 2006. Bu ishlarda kompetensiyalarning ta'riflari va tuzilishi ko'rsatilgan, o'qitish mazmuni nolingvistik mutaxassislik talabalarini chet tiliga o'qitishning yangi vazifalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

**XULOSA.** Yuqoridagi barcha fikrlarni umumlashtirib, xulosa qilish mumkinki, kompetensiya turli xil chet tillarini oson va samarali o'rganishda asosiy rol o'ynaydi. Ulardan birini ahamiyatliroq deb atashning iloji yo'q, chunki tilni o'rganish va o'rgatishda hammasi o'z o'rniga egadir. Aytishim mumkinki, lingvistik va strategik kompetensiyalar chet tili so'zlashuvchilariga xabar yetkazishda muhim rol o'ynaydi, ijtimoiy-lingvistik va pragmatik kompetensiyalar esa so'zlovchining nutqini tushunishning bir qismini egallaydi. Umuman olganda, chet tillari sohasida oliy ta'limni modernizatsiya qilish bo'yicha dasturiy hujjatlarning belgilanishi, xususan, ingliz tilining shaxs va kasbiy rivojlanish vositasi sifatidagi o'rni ortib borayotgani bu boradagi ishlarga alohida e'tibor qaratish zaruratini tug'diradi. O'quvchilarning chet tili kompetensiyalarini o'quv jarayonida o'zini o'zi boshqarishga yo'naltirishi va ko'nikmalar majmuasi sifatida shakllantirishi ingliz tilini professional maqsadlarda o'rganishda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Bir so'z bilan aytganda, "Chet tili" fanining asosiy maqsadi xorijiy hamkorlar bilan muloqot qilishda turli kasbiy, ilmiy, madaniy va maishiy faoliyat sohalari ijtimoiy va kommunikativ muloqot muammolarini hal qilish uchun zarur va yetarli darajada chet tili kommunikativ kompetensiyasiga ega bo'lgan talabalarni shakllantirishdir; o'z ornida bu har bir individual uchun shaxsiy rivojlanish desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

### References:

1. "Reconceptualizing Language Teaching": an in-service teacher education course book, David L. Chiesa, Ph.D. (Ed.), Ulugbek Azizov, Ph.D.
2. Диссертация на тему «Формирование иноязычной рефлексивной компетенции студентов энергетических специальностей при обучении английскому языку для профессиональных целей», скачать бесплатно автореферат по специальности ВАК РФ 13.00.02 - Теория и методика обучения и воспитания (по областям и уровням образования) (dissercat.com)
3. Bahodirovna, N.N. (2023). Linguistic Means of Describing Fairy-Tale Characters. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(5), 254–256
4. Nazarova, N.B. (2023). O'zbek va ingliz xalq ertaklarida o'xshatish. Science and Education, 4(6), 970–974.
5. Nazarova Nurjahon Bakhodirovna. (2023). THE ROLE OF TOPONYMS IN THE ONOMASTIC FIELD OF THE FAIRY TALE. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 12(06), 81–83.
6. Shahobiddinovna Z. A., Bahodirovna N. N. Applying Advanced Experiences in English

Learning to the Learning Process //International Journal of

7. Innovations in Engineering Research and Technology. – С. 1-4. 7. Назарова Н. Б. ЭРТАКНИНГ ДИСКУРСИВ БЕЛГИЛАРИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2022. – Т. 5. – №.2. INTERNET MANBALAR
8. [https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogik-kompetentlik-nazariyava-](https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogik-kompetentlik-nazariyava) amaliyot
9. <http://idiomas.ens.uabc.mx/plurilinkgua/docs/v4/2/ArticleDavidCompetenciesEN.pdf>
10. <https://www.cambridge.org/elt/blog/2015/11/24/competenceperformance-language-teaching-introduction/>